XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 15-iyun VI-86-107-8-0-K/24 Surxondaryo viloyati

Surxondaryo viloyatining ma’muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, deputatlar tomonidan bildirilgan taklif va fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Surxondaryo viloyati hokimligining 2024-yil 10-maydagi 02-02/3623-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Surxondaryo viloyati ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining 2024-yil 22-apreldagi “Surxondaryo viloyatining Qashqadaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi 02-02/98-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

3. Surxondaryo viloyati ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasi tomonidan taqdim etilgan Surxondaryo viloyatining Qashqadaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy birliklar chegarasining tavsifi **1-ilovaga** va kartografik chizmasi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Surxondaryo viloyati hokimligi (Sh.Rajabov) mazkur qarorni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborilishini ta’minlasin.

5. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga ommaviy axborot vositalari orqali sohada amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash xalq deputatlari viloyat Kengashining sanoat, transport, kommunal masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Djurayeva) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



CHORIYEV ABDURAIM
RAVSHANOVICH

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 15-iyundagi
VI-86-107-8-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyatining Qashqadaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy birliklar chegara chizig‘ining
TAVSIFI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan, Surxondaryo viloyatining Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh qismidagi ma’muriy chegarasini belgilash bo‘yicha tavsifi ishlab chiqildi.

Surxondaryo viloyatining Qashqadaryo viloyati bilan chegaralarini belgilashda boshlang‘ich nuqta qilib Turkmaniston Respublikasi va Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari chegara chizig‘ining tutashgan joyi boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 kordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatlari 38°0'04,318", sharqiy uzoqlik koordinatlari 66°37'20,665").*

Qashqadaryo viloyati yerlari bilan 1-26-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 663 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bilan tutashadi, keyin “Asmanbulak” tog‘i tizmasi barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy yo‘nalishda 1170 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1041 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 436 metr va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda yoysimon shaklda 669 metr, keyin sharqiy yo‘nalishida 316 metr va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1638 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burililishida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°02'30,363",-sharqiy uzunlik 66°38'52,066").*

2-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Atkaza” tog‘ tizmalarining barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 289 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 967 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1367 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 990 metr va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 6950 metr masofani o‘tib, Surxondaryo viloyatining Boysun va Sherobod tumanlarini chegara chiziqlari kesishgan joydagi 3-nuktaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°06'55,621", sharqiy uzunlik 66°42'29,406").*

3-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Atkaza” tog‘ tizmalarining barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2414 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 366 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 238 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishada 3402 metr va janubiy-sharqiy yo‘nalishda 342 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°08'14,254", sharqiy uzunlik 66°46'14,605")*

4-nuqtadan chegara chizig‘i “Tyubere oland” tog‘i tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 603 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1100 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 425 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 939 metr va shimoliy-

sharqiy yo‘nalishda 2007 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 848 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li burilishida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy-kenglik 38°10'0,836",sharqiy uzunlik 66°48'59,968").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomonidan avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 4837 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 1886 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 1880 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 541 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li burilishida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°14'28,578", sharqiy uzunlik 66°49'21,167").*

6-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i “Tashkalima” tog‘ining qoyalari bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2425 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 565 metr masofada M-39 “Toshkent-Termiz” avtomagistral yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°15'41,616", sharqiy uzunlik 66°50'15,457").*

7-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 329 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 355 metr masofani o‘tib, yaxshilangan zamin yo‘li bilan tutashadi, so‘ngra yaxshilangan zamin yo‘li va “Toshkent-Termiz” temir yo‘lini kesib o‘tib, quruq soy bilan tutashadi, so‘ng umumiy holda quruq chegara chizig‘i va quruq soyning o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 257 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 915 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 872 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, keyin quruq chegara chizig‘i va dala tuproq yo‘lining janub tomonidan shimoliy yo‘nalishda 642 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°17'05,820", sharqiy uzunlik 66 50'16,192").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy holda dala yo‘lining janub tomonidan hamda quruq chegara chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1539 metr masofani o‘tib, quruq soy bilan tutashadi, quruq soyning barcha burilishlarini hisobga olgan holda sharqiy yo‘nalishda 508 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bilan tutashadi va dala tuproq yo‘lining janub tomonidan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 276 metr masofada quruq soy va quruq chegara bilan tutashadi, keyin umumiy holda quruq soyning o‘ng qirg‘og‘idan sharqiy yo‘nalishda 594 metr masofani o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°17'32,601", sharqiy uzunlik 66°51'45,068").*

9-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali umumiy holda janubiy yo‘nalishda 628 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 572 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 521 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 971 metr va sharqiy yo‘nalishda 233 metr keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 984 metr masofani o‘tib, chegara burilishida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°17'07,951", sharqiy uzunlik 66°52'47,091").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomonidan, quruq soyning o‘ng tomonidan barcha burilishilarini hisobga olgan holda avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 867 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3639 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 747 metr, keyin umumiy holda quruq soyning o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1923 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 929 metr

masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°19'26,095", sharqiy uzunlik 66°56'24,532").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 191 metr masofada dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomonidan umumiy holda shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 579 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2607 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy 488 metr masofani o‘tib, quruq soy bilan tutashadi, quruq soyning o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 245 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2065 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1090 metr masofani o‘tib, quruq soy burilishida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°20'46,601", sharqiy uzunlik 66°59'01,238").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning o‘ng qirg‘og‘idan umumiy holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2104 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 301 metr, so‘ngra umumiy holda sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3216 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 458 metr va sharqiy yo‘nalishda 373 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 213 metr, so‘ngra umumiy holda sharqiy yo‘nalishda 1006 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 714 metr va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2118 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 553 metr masofadan quruq soyga o‘tadi, keyin quruq soyning o‘ng qirg‘og‘idan sharqiy yo‘nalishda 533 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1173 metr masofani o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°23'03,918", sharqiy uzunlik 67°04' 19,625").*

13-nuqtadan chegara quruq soyning o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1222 metr, keyin umumiy holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1633 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 711 metr masofadan so‘ng quruq chegara chizig‘iga o‘tadi, keyin chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2453 metr masofani o‘tib, quruq soy burilishida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°25'12,131", sharqiy uzunlik 67°06'59,329").*

14-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Nurkay” tog‘ tizmasining barcha burilishlarini hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2949 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomonidan shimoliy yo‘nalishda 1489 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 706 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 1091 metr va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 843 metr masofada “Sariqiya” tog‘ining tizmasi bilan tutashadi, keyin “Sariqiya” tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda umumiy holda avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3347 metr, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2507 metr masofani o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°31'09,137", sharqiy uzunlik 67°09'26,399").*

15-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Sariqiya” tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3886 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 4741 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3457 metr masofani o‘tib, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod va Qamashi tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan

joydagi 16-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°34'57,210", sharqiy uzunlik 67°15'28,138").*

16-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Chaqchar” tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1855 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 921 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2297 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 975 masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°37'05,222", sharqiy uzunlik 67°18'10,570").*

17-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Chap Shilxazar” muzlik tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy yo‘nalishda 3700 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2543 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 2043 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 827 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°41'29,444", sharqiy uzunlik 67°19'48,504").*

18-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Chap Shilxazar” muzlik tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval sharqiy yo‘nalishda 488 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 860 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1542 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1963 metr va shimoliy yo‘nalishda 633 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2082 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 1935 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 639 metr hamda sharqiy yo‘nalishda 4484 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°43'19,698", sharqiy uzunlik 67°27'40,957").*

19-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Shilxazar” muzlik tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1006 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 410 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 779 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 821 metr va sharqiy yo‘nalishda 739 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 764 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°42'06,391", sharqiy uzunlik 67°30'14,498").*

20-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Shilxazar” muzlik tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 788 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2644 metr masofani o‘tib, “Hisor” tog‘i tizmasi bilan tutashadi, keyin “Hisor” tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy yo‘nalishda 507 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 676 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2648 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°45'21,396", sharqiy uzunlik 67°32'22,707").*

21-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Hisor” tog‘ tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 501 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 566 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 2739 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2460 metr va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 815 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°48'47,432", sharqiy uzunlik 67°31'41,298").*

22-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Hisor” tog‘ tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval g‘arbiy yo‘nalishda 407 metr, keyin

umumiy holda shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 731 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2822 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2505 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi.(*shimoliy kenglik 38°50'25,237",sharqiy uzunlik 67°30'38,435").*

23-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Hisor” tog‘ tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2505 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 229 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 404 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1260 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 412 metr va umumiy holda shimoliy yo‘nalishda 518 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3225 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 589 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1780 metr hamda janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1780 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 369 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 412 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1373 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1917 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 1748 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 980 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1614 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 1085 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 38°58'51,555", sharqiy uzunlik 67°29'6,448").*

24-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Hisor” tog‘ tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1355 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1419 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 816 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 846 metr va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3393 metr masofani o‘tib, chegara chizig‘i burilishida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. (*shimoliy kenglik 39°0'36,279", sharqiy uzunlik 67°32'52,350").*

25-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali “Hisor” tog‘ining tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1059 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 405 metr, so‘ng yoysimon shaklda sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1037 metr va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 476 metr va keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2946 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3349 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1117 metr hamda janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 394 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 506 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 275 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 3810 metr masofada “Gava” dovoniga tutashadi, keyin chegara chizig‘i “Gava” dovoni va “Hisor” tog‘ tizmasi bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda sharqiy yo‘nalishda 294 metr masofani o‘tib, Tojikiston Respublikalari o‘rtasidagi chegara chizig‘idagi Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarini chegara chiziqlari kesishgan joydagi 26-nuqtaga tutashadi(*shimoliy kenglik 39°01'12,892",sharqiy uzunlik 67°40'57,730").*

Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 26-27-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

26-nuqtadan 27-nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi. *(shimoliy kenglik 37°10'20,591", sharqiy uzoqlik 67°47'12,033".*

Afg‘oniston Islom Respublikasi yerlari bilan 27-28 nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

27-nuqtadan 28-nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi. *(shimoliy kenglik 37°21'21,325", sharqiy uzoqlik 66°33'12,908").*


Turkmaniston Respublikasi yerlari bilan 28-1-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

28-nuqtadan 1-nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi. *(shimoliy kenglik 41°06'31,810", sharqiy uzoqlik 71°23'51,500).*

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 15-iyundagi
VI-86-107-8-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Surxondaryo viloyati ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining

CHIZMASI



Shartli belgilar

Surxondaryo viloyatining chegarasi va yer maydoni

1 *Surxondaryo viloyati chegarasining burilish nuqtasi va raqami*